



ERKIN VOHIDOV LIRIKASI BADIYYATI

Shahnoza Muhammadiyeva

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Til va adabiyot kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erkin Vohidov lirikasi haqida so'z yuritiladi. Xususan, milliy poeziya taraqqiyotida shoirning o'rnini uning adabiy mahorati bayon etiladi. Ayrim mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: adabiy talqin, ifoda uslubi, tasvir, poeziya, uyg'unlik, tahlil va talqin.

O'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega ijodkor Erkin Vohidov lirikasi o'zining falsafiy mazmuni, mushohadaga boy satrlari bilan yuksak saviyaga ega. Shoirning "Tong nafasi", "Yurak va aql", "Qo'shiqlarim sizga", "Mening yulduzim", "Tirik sayyoralar", "Muhabbat" hamda "Sharqiy qirg'oqlar" to'plamlari adabiyot ixlosmandlariga yaxshi tanish. Erkin Vohidov haqiqiy ijodkor, elparvar va mehnatsevar shaxsdir. Ijodkor she'riyatidagi mavzular ko'lami kengligi, janriy o'ziga xosligi bilan ahamiyatga molik.

Shoir she'riyatga oshno, she'rsevar shaxs. U yozadi: "She'rni anglamakning o'zi ham iste'dod. Biz bu iste'dodning nomini nazokat deymiz, nozikfahmlik deymiz. Bu fazilatga yangilikni anglash va baho bera olish sifati qo'shilganda u didga aylanadi. Didni esa yoshlikdan tarbiyalamoq, bilim va tuyg'ular boyligi bilan kamolatga yetkazmoq kerak"¹.

Shoir ijodi falsafiy teranligi, milliy ruhga boyligi, obrazlar xilma-xilligi, qolaversa, tafakkur uyg'unligiga ko'ra ajralib turadi. Lirikasining muhim jihati shundan iboratki, falsafiy mushohadaga keng o'rin beriladi. Shoir hayot, umr, vaqt, taqdir, insonning jamiyatdagi o'rnini kabi masalalarni poetik umumlashtirish orqali ifodalaydi. Uning she'rlarida oddiy hayotiy holatlar ham falsafiy mazmun kasb etadi. Shoir insonning ichki dunyosini ochishda tahliliy uslubdan foydalanadi. Lirik qahramon ko'pincha o'z-o'zi bilan muloqotda bo'ladi. Bu esa she'rlarga ruhiy chuqurlik baxsh etadi. Masalan, "O'zbekim", "Inson", "Vijdon" she'rlari va "Yurak" turkumidan o'rin olgan ijodiy ishlarida buni yaqqol sezish mumkin.

Bundan tashqari, shoir millat tarixi, ma'naviyatini, ruhiy kechinmalarini zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashtira oldi. Erkin Vohidov she'riyatida milliy o'zlik masalasi markaziy o'rinda turadi. Ayniqsa, "O'zbekim" she'ri milliy poeziyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

¹ "She'riyat izlanishda yashaydi» maqolasidan



Bu she'rda: tarixiy xotira, milliy g'urur, ajdodlar merosi, millat sha'nini poetik umumlashtirish orqali ifodalanadi. Shoir millatni ideallashtirmaydi, balki uning og'riqlari va iztiroblarini ham ko'rsatadi. Shu jihat milliy poeziyaning samimiyligini ta'minlagan desak xato bo'lmayd i.

Xulosa qilib aytganda shoir she'riyati poeziyasi o'zbek adabiyotida milliy ong, tarixiy xotira va tafakkurning yuksak badiiy ifodasi sifatida muhim. Ijodkorning badiiy mahorati milliy ruhni sodda va ravon til orqali ifodalashida yaqqol namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. —Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. —Toshkent, 2021.
3. Qosimov B. O'zbek adabiyoti tarixi. —Toshkent, 2016.
4. Rasulov A. Erkin Vohidov she'riyati va zamon. —Toshkent, 2018.8. Normurodova M. Ma'naviyat va yoshlar tarbiyasi. —Toshkent, 2020.